

2-TOM, 6-SON

IJTIMOYIY-SIYOSIY MATNLAR TARJIMASINING LINGVISTIK VA  
EKSTRALINGVISTIK ASPEKTLARI

Erkinova Durdona

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolaad ijtimoiy-siyosiy matnlar tarjimasining lingvistik va ekstralingvistik aspektlari, ijtimoiy-siyosiy matnlar tarjimalarining lug'atga olingan so'zlar va frazalar interpretatsiyasini izlovchi va tushunchalarini qayd etuvchi ma'lumotnoma yoki qay darajada tushuncha beruvchiligi yoritib o'tilgan. Shuningdek, lingvistik aspektlar matnni o'zbek tiliga nisbati, grammatik elementlari, stilistika va leksika muammolari bilan bog'liqligi qisqa tarzda ko'rsatilib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** ijtimoiy-siyosiy leksika, lingvistik va ekstralingvistik aspektlar, fonetik, lug'aviy, frazeologik va grammatik.

O'zbekiston Respublikasining o'z mustaqilligini qo'lga kiritishi sharofati bilan bugungi kunda o'zbek davlatchiligi uzoq yillik tajribalar asosida qaytadan rivojlantirilmoqda, odil fuqarolik jamiyati qurish yo'lidan borib, ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, iqtisodiy sohalarda ulkan islohotlar, buyuk o'zgarishlar amalga oshirilmoqda.

Tabiiyki, bunday sharoitda har qanday milliy til doim rivojlanib, takomillashib boradi. Bu sohada O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2019-yil 21-oktyabrdagi PF-5850-sonli "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni, 2019-yil 4-oktyabrdagi PQ – 4479-sonli "O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi qonuni qabul qilinganligining o'ttiz yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2020-yil 20-oktyabrdagi "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til



## 2-TOM, 6-SON

siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni ona tilimiz – o'zbek tilining rivoji uchun tom ma'nodagi yangi davrni boshlab berdi, uning yaqin kelajakda rivojlanish tamoyilini belgiladi.

Binobarin, mustaqillik davrida tilimiz yangi so'zlar bilan ancha boyidi. Xususan, oxirgi yillarda O'zbekistonning butun dunyoga yanada "ochilishi" natijasida tilimizga ko'plab xorijiy so'zlar o'zlashdi. Ayniqsa, bu jarayon terminologiyada ko'zga yaqqol tashlandi.

Shu bois bugungi kunda hozirgi davr talablaridan kelib chiqqan holda tuzilgan turli soha izohli lug'atlariga katta ehtiyoj sezilmoqda. Xususan, mamlakatimizda hozirda amalga oshirilayotgan tub ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar nuqtayi nazaridan ijtimoiy-siyosiy terminlarning izohli lug'atini tuzish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chunki "Davlat tili haqida"gi qonun qabul qilingan dastlabki yillarda terminologiyamizda, xususan, ijtimoiy-siyosiy soha atamalarida murakkab holat, ya'ni atamalardagi xilmaxillik avj olib ketdi. Qisqa vaqt ichida bu sohadagi bahsli terminlarning ilmiy asoslangan muqobillari tanlandi va boshboshdoqlik bartaraf etildi. Endi esa bu terminlarning ma'lum bir tartibga solingan tizimli izohli lug'atini tuzish muhim vazifa hisoblanadi.

Ijtimoiy-siyosiy leksika lug'aviy sistemaning jamiyat siyosiy hayoti yoki siyosiy tizimiga bevosita aloqador bo'lgan hodisalar, jarayonlar va munosabatlarni ifodalovchi, ayni vaqtda ijtimoiy-tarixiy, iqtisodiy, madaniy, diniy, ma'naviy-ma'rifiy kabi omillar asosida shakllanuvchi o'zgaruvchan qatlamidir<sup>1</sup>.

Ijtimoiy-siyosiy leksika ijtimoiy-siyosiy terminologiyaga nisbatan kengroq hodisa hisoblanadi. Ijtimoiy-siyosiy terminlarning tarkibi va chegarasini belgilash olimlar o'rtasida hozirgi kungacha ancha munozarali bo'lib kelmoqda. "Siyosat" tushunchasi o'zining ijtimoiy mohiyati, mazmuni va xususiyatlariga ko'ra keng va tor ma'nolarda qo'llanadi. Keng ma'noda u jamiyat hayotining xilma-xil sohalarida ro'y beradigan voqea-hodisalar,

<sup>1</sup> To'raxojayeva A.X. *Mustaqillik sharoitida o'zbek tili ijtimoiy-siyosiy leksikasining taraqqiyoti: filol. fan. nomz ... diss. avtoref.* – Toshkent, 2012. – B.9.



## 2-TOM, 6-SON

o'zgarishlarni aks ettiradi. Tor ma'noda esa jamiyat hayotining alohida bir sohasida, ya'ni uning siyosiy sohasida ro'y beradigan o'zgarishlarni ifodalaydi va shu sohaning o'ziga nisbatan qo'llanadi"<sup>2</sup>.

Ijtimoiy-siyosiy matnlar tarjimasining lingvistik va ekstralingvistik aspektlari, bir qancha muhim muammolarni o'z ichiga oladi. Lingvistik tomondan, matnlarning tarjimasini, ularning til va grammatikasi, matnning strukturasi va uslubini o'z ichiga oladi. Tarjima, original matndagi ma'nolarni sodda va to'g'ri tarzda ifodalashni talab qiladi.

Ekstralingvistik tomondan, ijtimoiy-siyosiy matnlar tarjimasining muammolari o'zaro madaniyatlar, siyosiy nuqtai nazarlar va jamiyatning boshqa tajribalari bilan bog'liq bo'ladi. Tarjima qiluvchilar uchun bu muammolar bilan taraqqiyot qilish, original matndagi mavzuni va ma'nolarni chuqur tushunishni talab qiladi.

Ijtimoiy-siyosiy matnlar tarjimasida lingvistik va ekstralingvistik aspektlar juda muhimdir, chunki bu turdagi matnlar jamiyatga katta ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'ladi. Bu sababli, ishonchli va sifatli tarjima usullaridan foydalanish juda muhimdir.

Ekstralingvistik aspektlar esa ijtimoiy-siyosiy matnning tarjima qiluvchisi uchun zarur bo'lgan kontekst, maqsad va ma'nolar, obraz va imijlar, san'atshunoslik va ideologiya muammosi kabi muddatlarning tahlilini o'z ichiga oladi. Bunday tushunchalar tarjamachi uchun matnni to'liq tushunishga yordam beradi va original matndagi ko'rsatmalar, nuqtai nazarlarni sodda tarzda anglashga imkon beradi.

Ijtimoiy va siyosiy matnlar tarjimasining lingvistik va ekstralingvistik aspektlari, turli xil til usullarini va texnikalarini o'z ichiga oladi. Lingvistik aspektlar, matnning grammatikasi, leksikologiyasi va pragmatikasiga e'tibor qaratadi. Tarjima qiluvchi tilni tushunish, matndagi so'zlar va iboralar yaxshi tarzda ko'chirilishi, shuningdek tarjima qilingan matnning muqobiliga mos keladigan so'z yoki ifodalarni tanlashda amalga oshiriladi.

<sup>2</sup> Odilqoriyev X.T., Razaqov X.D. Siyosatshunoslik. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2009. – B.104.



## 2-TOM, 6-SON

Matndagi fikrlar va mantiqning to'g'ri ko'chirilishi ham ekstralingvistik tushunchalar hisoblanadi. Bunday matnlarda ijtimoiy normalar va siyosiy kontekstlar muhim ahamiyatga ega bo'lishi mumkin.

Barcha bu faktorlar birgalikda ijtimoiy-siyosiy matnlar tarjimasini aniq tushunarli holatda amalga oshirish uchun juda muhimdir. Bu holatni tushunish uchun tarjimaning mutaxassisligi bilan birgalikda texnika mashg'ulotlari ham kerak bo'ladi.

Prezidentimiz tomonidan yozilgan asarlarni shu jihatdan kuzatadigan bo'lsak, uning tilimiz imkoniyatlaridan mohirona foydalanganligidan tashqari, mustaqillik davriga xos bo'lgan ko'plab ijtimoiy-siyosiy sohaga oid terminlar qo'llaganligi, shu soha terminologiyasini rivojlantirib, yangi so'z va so'z birikmalarini iste'molga olib kirganligining guvohi bo'lamiz. Bu borada publitsist - yozuvchi o'z maqsadiga erishish uchun tilning ifoda vositalari - metafora, metonimiya, kinoya, o'xshatish, sifatlash, tasviriy ifoda kabilardan unumli foydalangan.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdullayev M., Abdullayeva M. va boshqalar, Mustaqillik. Izohli ilmiy-ommabop lug'at, to'ldirilgan uchinchi nashri,- T.: «Sharq», 2006. -B. 528.;
2. Ijtimoiy-siyosiy terminlarning qisqacha izohli lug'ati [Matn]: lug'at / A. Madvaliyev [va boshq.]. – Toshkent: “SAHHOF” nashriyoti, 2021. – 3-b;
3. Omonov B. “Siyosiy yetakchi nutq madaniyatining jamiyatni demokratlashtirish jarayonlariga tahsiri”, siyosiy fanlar nom. diss., T.: 2004, -B. 8.;
4. Odilqoriyev X.T., Razzaqov X.D. Siyosatshunoslik. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2009. – B.104.;
5. To'raxojayeva A.X. Mustaqillik sharoitida o'zbek tili ijtimoiy-siyosiy leksikasining taraqqiyoti: filol. fan. nomz ... diss. avtoref. – Toshkent, 2012. – B.9.;

